

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2022 yil
yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining
huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati
to'g'risidagi**

A X B O R O T I

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev boshchiligida **Yangi O'zbekistonni** barpo etish maqsadida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, 2022 yil davomida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

I. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi **PF-60-son** Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturidagi chora-tadbirlar uchun Ichki ishlar vazirligi asosiy ijrochi etib belgilangan jami **10 ta** bandning ijrosi ta'minlangan.

Buning doirasida:

– ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolar uchun "Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" joriy etildi;

– jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etgan holda "**102**" **tizimini** takomillashtirishga qaratilgan **8 ta** tashkiliy-texnik tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi;

– joriy yildan boshlab fuqaroning shaxsini aniqlash uchun ichki ishlar bo'limiga olib borish amaliyotidan voz kechiladi, shaxsga doir barcha ma'lumotlar joyida planshet orqali tekshiriladi va patrul-post xizmati xodimlarining faoliyati "bodikamera"dan foydalangan holda amalga oshirilishi yo'lga qo'yiladi.

II. Oliy Majlis Senatining 2022 yil 5 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axboroti haqida"gi qarori ijrosi

2022 yil 5 avgustda o'tkazilgan Oliy Majlis Senati yalpi majlisining qarori (SQ-596-IV-son) bilan belgilab berilgan **11 ta** topshiriqning har bir bandi alohida nazoratga olinib, mas'ullar belgilanib, ijrosi ta'minlandi.

III. Aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini o'rganish va hal etish hamda fuqarolarga qulayliklar yaratish borasidagi tadbirlar

3.1. Qishki mavsumda noqulay ob-havo sharoitida aholi osoyishtaligini ta'minlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, har bir hududiy ichki ishlar organlarida **idoralararo ishchi guruhlar** (*IIB, MGv, FVV, prokuratura, hokimlik, kammunal soha idoralari*) tashkil etilib, elektr energiya, tabiiy gaz resurslarini xavfsiz iste'mol qilish va shu bilan bog'liq noqonuniy holatlarni aniqlash ishlari tashkil etildi:

- elektr energiyasidan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq **17 ta** jinoiy va **746 ta** ma'muriy holat aniqlanib, tegishli choralar ko'rildi;

- tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq **34 ta** jinoiy va **859 ta** ma'muriy holatlar aniqlandi;

- energiya resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan mahallalarda **45 ming 768 ta** ob'ektlar o'rganilib, aniqlangan muammolarning **1 223 tasi** bartaraf etilib, **33 tasi** bo'yicha tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritildi;

- mazkur sohada aholidan **94 002 ta** murojaat kelib tushib, ularning **80 821 tasi** ijobiy hal etildi, **12 824 tasi** bo'yicha tushuntirish berildi;

- noqulay ob-havo sharoitida yo'llarda xavfsiz sharoitlarni ta'minlash uchun **1 630 nafar** yo'l-patrul xizmati xodimlari va **851 ta** patrul avtomashinalari, shuningdek, **2 132 nafar** hokimlik va **1 953 nafar** yo'l idoralari xodimlari hamda **568 ta** yo'l tozalash texnikalari jalb etildi.

O'z navbatida Toshkent shahrida Ichki ishlar vazirligiga biriktirilgan Yunusobod, Mirzo Ulug'bek, Chilonzor, Yashnobod va Bektemir tumanlarida ham anomal sovuq sharoitida aholiga qulaylik yaratish va ularning muammolarini hal etish borasida tizimli ishlar tashkil etildi.

Har bir tuman elektr ta'minoti korxonalarida (*huquq-tartibot idoralari, hokimlik, elektr, gaz, issiqlik korxonalarini va kommunal xizmatlar rahbarlaridan iborat*) **tezkor shtablar** tuzildi.

Shtablarda **4 ta sektor rahbarlari** tomonidan murojaat qilayotgan fuqarolar bilan suhbatlashish va ularning muammolarini zudlik bilan hal etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Energiya ta'minotidagi uzilishlarni **alohida daftarga** qayd etish (*navbatchilik qismidagi tartib asosida*), hodisa joyiga ta'mirlash brigadalarini **yo'l-patrul xizmati mashinalari kuzatuvda** etib borishi ta'minlandi.

Buning uchun, shtablarda jami **46 nafar** ishchilardan iborat **24 soat** faoliyat yurituvchi "Koll-tsentrlar" tashkil etildi.

Elektr tarmoqlari korxonasida **96 ta** ta'mirlash guruhi (*kunduzgi 58 ta, tungi 38 ta*) tuzilib, ularga **96 ta** patrul ekipaji biriktirildi.

Elektr energiya va tabiiy gaz ta'minoti bilan bog'liq **7 340 ta** murojaat kelib tushib, barchasi hal etildi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 13 dekabrda **Uchtepa tumaniga** amalga oshirgan tashrifi davomida Toshkent shahridagi jamoat transporti yo'lovchilari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, bu boradagi ish faoliyatini **qattiq tanqid qilib**, topshiriqlar berdi.

Shundan kelib chiqib, "Toshshahartransxizmat" aktsiyadorlik jamiyatida **Idoralararo tezkor shtab** faoliyati yo'lga qo'yilib, **avtobus saroylari** Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga birlashtirildi.

Ta'mirtalab **150 dona** avtobuslar ta'mirlanib, yo'nalishlarga chiqarildi, avtobuslar parkini ko'paytirish uchun vazirlik va idoralardan qo'shimcha **55 dona** avtobuslar jalb etildi.

"Samavto" zavodidan **178 dona** yangi avtobuslar olib kelinib, yo'lovchilarni tashishga jalb etilgan avtobuslar soni **1 104 donaga** etkazildi va tirband yo'nalishlarga **80 dona** avtobuslarni qo'shimcha jalb etish imkoniyati yaratildi.

Natijada avtobuslar **harakatlanishi oralig'i 10 daqiqagacha** qisqarishiga, tashiladigan **yo'lovchilar** soni **12 foizga** oshishiga erishildi.

Avtobus yo'nalishlarida **yo'l infratuzilmasi** bilan bog'liq **87 ta** kamchiliklar bartaraf etildi. Jumladan, **916 km yo'l chiziqlari** yangilanib, qo'shimcha **159 dona yo'l belgilari** o'rnatildi.

Tirband ko'chalarda avtobuslar uchun **5 ta** alohida yo'laklar ajratilib, barcha zaruriy yo'l chiziqlari va yo'l belgilari bilan qayta jihozlandi hamda **2 555 ta** bekatlarda aholi kayfiyatini o'rganish bo'yicha **652 nafar** xodimlar birlashtirilib, bekatlarning barchasi o'rganilib, ularda aniqlangan **712 ta** kamchiliklar bartaraf etildi.

IV. Yirik ommaviy tadbirlarda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi tadbirlar

2022 yildagi **Navro'z bayrami** **239 ta** ob'ektlarda **1 mln 257 mingdan** ortiq fuqarolar ishtirokida o'tkazilib, jamoat tartibi to'liq ta'minlandi.

Bunda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash uchun jami **36 214 nafar kuchvositalarni** safarbar etilib, xizmatda foydalanish uchun **7 305 ta aloqa**, **1 656 ta avtotransport vositalari** va **2 532 ta metallodetektor** bilan ta'minlandi.

Bayram tadbirlari o'tkaziladigan barcha joylarning **texnik mustahkamligi, tayyorgarlik ko'rikdan o'tkazilib**, ushbu hududlar **2 272 ta kuzatuv kameralari** bilan to'liq qamrovga olindi.

Mustaqillikning 31 yillik bayrami tantanalari **224 ta ob'ektlarda 800 mingdan ortiq** fuqarolar ishtirokida o'tkazilib, noxush holatlar sodir etilmadi.

Mazkur tadbirlarga **20 091 nafar** huquq-tartibot idoralari xodimlari va **8 344 nafar jamoatchilik vakillari** jalb etiladi. Ularga xizmatda foydalanish uchun **5 749 ta aloqa**, **1 478 ta avtotransport vositalari**, **1 954 ta metallodetektor** hamda **298 bosh** xizmat itlari birlashtirildi.

“Yangi 2023 yil” bayrami munosabati bilan 2022 yil 20 dekabrda 2023 yil 9 yanvarga qadar **255 ta** ob’ektlarda **3 mlndan ortiq** fuqarolar ishtirokida **2 744 ta** bayram tadbirlari o’tkazildi.

Xavfsizlikni ta’minlashga **21 062 nafar kuch-vositalar** jalb etildi.

2022 yil 29-30 dekabrda Qoraqalpog’iston, Toshkent shahri va viloyatlarda **“Prezident archasi” tadbirlari** o’tkazildi.

Prezident nomidan beriladigan jami **9 993 ta** sovg’alar **2022 yil 20-25** dekabrda avto va havo transportlari orqali hududlarga yuborildi.

Bayram tadbirlari davomida **55 ta** ko’chalar **247 ta beton to’siqlar** yordamida yopildi.

Yuqoridagi barcha ommaviy tadbirlarni o’tkazish davomida tezkor vaziyatni nazorat qilish, jamoat tartibini saqlash va xizmatga jalb etilgan kuch-vositalarni markazlashgan tartibda boshqarish uchun **Vazirlik markaziy apparatida tezkor shtab**, joylarda esa **ishchi guruhlar** faoliyati yo’lga qo’yildi.

Joylardagi shtablarning faoliyatini samarali tashkil etish va ularga zaruriy amaliy yordam ko’rsatish maqsadida Vazirlik markaziy apparatining rahbar xodimlari hududiy ichki ishlar organlariga mas’ul etib biriktirildi.

Tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida **“Xavfsiz hudud”**, **“Chegara tozalash”**, **“Qurol”** va **pirotexnika buyumlarini** noqonuniy aylanishining oldini olish bo’yicha profilaktik tadbirlar o’tkazildi.

Shuningdek, Samarqand shahrida **2022 yil 15-16 sentyabr** kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo-mamlakat rahbarlarining navbatdagi sammiti o’tkazilib, unda **13 ta** davlat va **10 ta** xalqaro tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

Sammit davomida **Maxsus operativ shtab** faoliyati yo’lga qo’yilib, xavfsizlikni ta’minlash uchun Samarqand yo’nalishida jami **20 mingdan ortiq** shaxsiy tarkib jalb etilgan.

O’z navbatida, **2022 yil 10-11 noyabr kunlari** Turkiy davlatlar tashkiloti Samarqand sammitida **O’zbekiston, Ozarbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Turkiya** davlat rahbarlari hamda **kuzatuvchi bo’lgan 2 ta**, ya’ni **Vengriya** bosh vaziri va **Turkmaniston Milliy Kengashi Xalq Maslahati Raisi** ishtirokida o’tkazildi.

Mazkur tadbirlar davomida jamoat tartibi **zamonaviy kuch-vositalardan** va **yangi axborot texnologiyalaridan** vositalaridan samarali foydalanilgan holda tashkil etildi.

V. Mahallalarda fuqarolar uchun munosib va xavfsiz sharoitlarni yaratish borasida o'tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirlar

Bevosita mahallalarda aholi muammolarini hal etish, fuqarolarning hayoti uchun munosib va xavfsiz sharoitlarni yaratish ishlarining haqqoniyligini ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022 yil 6 apreldagi (02-406-son) topshirig'iga asosan 2022 yil **10 apreldan 1 iyul** kuniga qadar **birinchi bosqichda respublikaning barcha hududlarida aholi osoyishtaligi hamda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash** bo'yicha kompleks tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Buning doirasida:

– sektor rahbarlari va sektorlar shtabi a'zolarining hududlarni **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish** hamda **jinoyatchilikni jilovlash** faoliyati **tanqidiy o'rganilib, uslubiy va amaliy** yordamlar ko'rsatildi;

– faol nuroniylar va mahalla jamoatchiligi bilan muloqotlar o'tkazilib, fuqarolarni qiynab kelayotgan **ijtimoiy-maishiy muammolar** va **ularning echimlari bo'yicha aholining takliflari o'rganildi**;

– aholini ichimlik suvi, gaz va elektr energiyasi ta'minotida mavjud muammolarni **tizimli hal etish bo'yicha tuman (shahar) – viloyat kesimida 208 ta hududiy chora-tadbirlar dasturlari** ishlab chiqildi.

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ortda qolayotgan **“og'ir”** toifadagi **986 ta, “Obod qishloq”** va **“Obod mahalla”** dasturlariga kiritilgan **253 ta mahallalar kesimida “manzilli dastur”**lar tasdiqlandi;

– kriminogen vaziyatiga ko'ra **“qizil”** toifaga kiritilgan **mahallalar kesimida kompleks profilaktik va tezkor-qidiruv** tadbirlari bo'yicha **“yo'l xarita”**lari tasdiqlandi.

O'z navbatida, **ikkinchi bosqichda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshirig'iga asosan tuzilgan, Prezident maslahatchisi o'rinbosari va Ichki ishlar vaziri tomonidan muvofiqlashtirilayotgan **respublika idoralararo ishchi guruhi** tomonidan:

– 2022 yilning **8-12 avgust** kunlari **Navoiy** viloyatida;

– 2022 yilning **12-16 sentyabr** kunlari **Toshkent shahri** va **Toshkent viloyatida**;

– 2022 yilning **25 sentyabr-18 oktyabr** kunlari **Andijon, Namangan** va **Farg'ona** viloyatlarida;

– 2022 yilning **13-17 oktyabr** kunlari **Buxoro** viloyatida;

– 2022 yilning **27-31 oktyabr** kunlari **Qashqadaryo** viloyatida;

– 2022 yilning **9-13 noyabr** kunlari **Sirdaryo** viloyatida;

– 2022 yilning **16-21 noyabr** kunlari **Jizzax** viloyatida aholi osoyishtaligi hamda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash faoliyati o'rganilib, tashkiliy-

profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Amalga oshirilgan o'rganishlar davomida:

– jamoat xavfsizligiga mas'ul organlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, mavjud xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha manzilli vazifalarni belgilash maqsadida joylarda **10 tadan** ishchi guruhlarining faoliyati yo'lga qo'yildi;

– kriminogen vaziyati og'ir **1 062 ta** mahallaga borib, sektor rahbarlari, profilaktika inspektorlari, fuqarolar yig'ini raislari, hokim yordamchilari, yoshlar etakchilari va xotin-qizlar faollariga aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etishning ish uslublari o'rgatildi;

– kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida **307 ta** jinoyat va **9 195 ta** ma'muriy huquqbuzarlik aniqlandi, **265 ta** jinoyat “issiq izida” fosh etildi, qidiruvdagi **174 nafar** jinoyatchi qo'lga olindi;

– giyohvandlik vositalarini tarqatib kelgan **275 nafar** shaxsning jinoiy faoliyatiga barham berilib, **84,3 kg** giyohvandlik vositasi ashyoviy dalil sifatida olindi;

– chigit savdosi bilan noqonuniy shug'ullanib kelgan **25 ta** jinoiy guruh aniqlanib, **749 t** chigit, **1 804 l** paxta yog'i musodara qilindi, noqonuniy ravishda saqlanayotgan **243 t** paxta xomashyosi paxta qabul qilish punktlariga topshirildi;

– davlat zaxirasidagi **46,1 gektar** erni **346 ming AQSh** dollariga sotishga uringan **30 nafar** fuqarolarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi;

– noqonuniy ravishda neft va spirtni qayta ishlash bilan shug'ullangan **11 ta** yashirin tsex faoliyati fosh etilib, **7 232 l** benzin, **5 134 dona** iste'molga yaroqsiz alkogol mahsulotlari musodara qilindi;

– ov qurolini saqlash qoidalarini buzgan **246 nafar** (*116 dona ov quroli olindi*), tig'li buyum olib yurgan **2 053 nafar** fuqaroga (*2 078 dona pichoq, kastet va bitalar*) ma'muriy choralar ko'rildi;

– “Davomat” tadbirlarida **3 873 nafar** o'quvchi maktabga qaytarildi, yotoqxonada yashovchi **34 855 nafar** talabalarning yashash sharoitlari o'rganildi;

– “Avtoreyd” tadbirlari davomida **43 748 nafar** qoidabuzar aniqlanib, **5 612 ta** avtomashina jarima maydoniga qo'yildi.

Bevosita joylarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish borasida ko'rilyotgan chora-tadbirlar ahvoli tanqidiy muhokama qilindi.

Buning doirasida o'z xizmat faoliyatida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygan ichki ishlar organlarining **139 nafar** (*tizimdan bo'shatish – 4, egallab turgan lavozimidan ozod etish – 30, maxsus unvonida bir pog'ona pasaytirish – 2, jarima – 9, qattiq hayfsan – 16, hayfsan – 59, tanbeh – 19*) rahbar va mas'ul xodimlariga nisbatan intizomiy jazo choralari ko'rildi.

O'rganishlar davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha **har bir viloyatda** manzilli tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarning “**Yo'l xarita**”lari

tasdiqlanib, ijroga qaratildi.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har bir hudud kesimidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.

VI. Jinoyatchilikni “mahallabay” usulda jilovlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

Bugungi kunda har bir mahallada aholining muammoli toifalari bilan ishlashga **5 ta idora vakillari**, ya'ni **profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari, yoshlar etakchilari, mahalla raislari va xotin-qizlar faollari** to'liq jalb etilmoqda.

6.1. Xususan, o'tgan 2022 yil davomida jinoyatchilikni “**mahallabay**” usulida jilovlash yo'nalishida:

– mahallalarda **6 251 marotaba sayyor qabullar** va **4 760 marotaba sayyor sudlar** o'tkazilib, **3 mlndan** ortiq xonadonlar o'rganildi;

– profilaktik hisobga olingan **301 222 nafar** shaxs bilan manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilib, ularning **24 495 nafari** ishga joylashtirildi, **7 547 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

– **19 591 nafar** ilgari sudlangan shaxslar profilaktik hisobdan chiqarilib, **2 136 nafariga** tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'maklashildi;

– sog'liqni saqlash idoralari hisobida turgan **14 827 nafar** shaxslar, shu jumladan, **10 058 nafar** spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, **838 nafar** giyohvand va **3 931 nafar** ruhiy kasallar majburiy davolashga jo'natildi;

– profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun **1 833 759 ta** bayonnoma rasmiylashtirildi, jumladan **84 272 marotaba** sud majlislari “onlayn” tarzida o'tkazilishi ta'minlandi;

– bugungi kunda faoliyat yuritib kelayotgan **9 373 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarining, **332 tasida** “**Mahalla huquq-tartibot maskani**” faoliyati yo'lga qo'yilib, yana **802 tasida** shunday maskanlarni tashkil etish ishlari davom ettirilmoqda.

6.2. Mahallalarda **yoshlar** va **voyaga etmaganlar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari ko'rildi:

– **yoshlar etakchilari** bilan hamkorlikda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashtirish maqsadida **22 848 marotaba** sport, **16 340 ta** madaniy va **14 443 ta** ma'rifiy tadbirlar, **140 829 marotaba** uchrashuvlar o'tkazildi;

– **voyaga etmaganlar** orasida nazoratsizlikning oldini olish maqsadida jamoat joylarida qarovsiz qolgan **100 065 nafar** bola aniqlanib, ularning **28 014 nafari** ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga joylashtirildi, ota-onaga qaramog'isiz qolgan **207 nafariga** vasiy va homiylar tayinlandi;

– farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarning **436 nafari** ishga joylashtirildi, **1 882 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

– **talabalar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida, **187 ta** oliy ta'lim muassasasida **137 nafar** profilaktika inspektorining (*shundan 14 nafari ayol inspektor*) faoliyati yo'lga qo'yildi;

– **76 ta** oliygohda **250 ta** patrullik guruhlarini tashkil etilib, ularga **1 631 nafar** talaba jamoatchilik asosida jalb etildi;

– "**Xavfsiz ta'lim muassasasi**" tamoyili asosida inspektor psixologlar tomonidan **89 098 nafar** tarbiyasi og'ir bolalar bilan **135 374 marotaba** profilaktik ishlar olib borildi, ularning xonadonlariga **133 208 marotaba** borilib, farzandining tarbiyasiga e'tiborsizlik qilgan **77 752 nafar** ota-onalarga ma'muriy choralar ko'rildi;

– voyaga etmaganlarning **5 730 nafari** o'qishga qaytarildi, **7 073 nafari** sport, **5 296 nafari** fakultativ to'garaklarga, **1 441 nafari** kichik biznes shoxobchalariga jalb etildi va **1 805 nafari** "Barkamol avlod" markazlariga joylashtirildi;

– nazoratsiz yurgan **100 065 nafar** voyaga etmagan shaxslar aniqlanib, **28 014 nafari** ijtimoiy-huquqiy yordam markazlariga va **299 nafari** o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi;

– hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan buyumlarni olib yurgan **1 179 nafar** voyaga etmaganlar aniqlanib, ulardan **596** dona pichoq, **30** dona bita, **367** dona kastet, suriken va kistenlar hamda **190** dona boshqa hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan buyumlar olindi.

6.3. Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

– ijtimoiy ko'makka muhtoj ayollarning **6 324 nafari** ishga joylashtirildi, **1 315 nafari** tibbiy yordam ko'rsatilib, **6 029 nafari** moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'maklashildi va **345 nafar** zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslar rehabilitatsiya qilish markazlariga joylashtirildi;

– tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan **49 774 nafar** xotin-qizlarga "himoya orderi" berilishi natijasida **25 239 ta** oilalar yarashirilib, **20 887 ta** nizolar bartaraf etildi;

– og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'ravonlik ishlatilishiga duch kelgan **402 nafar** xotin-qizlar Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirildi;

– ijtimoiy muammolari hal etilishi natijasida sog'lom turmush tarziga o'tgan **30 720 nafar**, shu jumladan **827 nafar** voyaga etmagan qizlar, **5 716 nafar** yosh (*18-30 yosh*) xotin-qizlar, **1 078 nafar** ilgari sudlangan ayollar ichki ishlar organlari hisobidan chiqarildi;

– og'ir vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga tezkorlik bilan zaruriy yordam ko'rsatish uchun tizimda (*Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida, 2022 yil*

10 yanvardan) qisqa “1259” va “1286” raqamli “Ishonch markazi” tashkil etilib, markazga qo’ng’iroq qilgan 12 767 nafar ayollarga psixologik va huquqiy yordam ko’rsatildi.

6.4. Aholining kam ta’minlangan, yakka yolg’iz, boquvchisini yo’qotgan, nogiron hamda doimiy mehnat bilan band bo’lmagan qatlamlari bilan ishlash borasida “mahallabay” tizimi yo’lga qo’yildi.

Mazkur tizim doirasida, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga birlashtirilgan **3-sektorlarda**:

– “**Temir daftar**”ga kiritilgan **168 040 ta** ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal qilish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, bugungi kunga kelib ularning **162 031 tasida** (96,4 %) daromad manbai shakllantirildi va ular Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlari asosida ro’yxatdan chiqarildi;

– “**Ayollar daftari**”ga kiritilgan **161 114 nafar** xotin-qizlarga ko’maklashilib zaruriy yordam ko’rsatildi;

– “**Yoshlar daftari**”ga kiritilgan ko’makka muhtoj yoshlarning **2 661 nafari** doimiy ish o’rinlari bilan ta’minlandi, **2 554 nafariga** kredit ajratildi, **21 657 nafariga** er ajratildi, **709 nafari** “ustoz-shogird” an’anasi asosida hunarmandlarga birlashtirildi, **10 141 nafariga subsidiya ajratildi**, **14 137 nafariga** ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko’rsatildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida bugungi kunda jami **73 491 nafar** (93,2 %) yoshlar ro’yxatdan chiqarildi.

VII. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va kriminogen vaziyatning o’ziga xos xususiyatlari

2022 yilning 12 oyi mobaynida respublika hududida jinoyatchilikni jilovlash, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va kriminogen vaziyat barqarorligini ta’minlash borasida **kompleks chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

7.1. Tezkor-qidiruv faoliyatini jadallashtirish yo’nalishida:

2022 yilda xodimlarning tashabbusi bilan **38 810 ta** jinoyat aniqlangan bo’lib, mazkur amaliyot **18 foizga** yaxshilangan. Xususan:

– **564 ta** “hujra”, **73 ta** noqonuniy namozxona, **66 ta** noqonuniy diniy jamoat hamda **2 179 ta** internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yot g’oyalarni tarqatish holatlariga barham berilgan;

– noqonuniy muomaladan **2 tndan** ziyod giyohvandlik vositalari va **86,5 kg** yoki **to’rt baravar** ko’p psixotrop dori-vositalari olingan;

– qoidaga zid ravishda saqlangan **1 447 dona** o’qotar ov quroli, **5 782 dona** pnevmatik qurol va jamoat joylarida olib yurilgan **67 301 dona** sovuq qurol olib qo’yilgan.

Shuningdek, respublikada sodir etilgan jami jinoyatlarning **105 215 tasi** yoki **89,3 foizi** fosh etildi, tergov organlaridan yashiringan **5 523 nafar** shaxslar

ushlandi, **386 nafar** bedarak yo'qolganlar topilib, **17 ta** shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi;

– **2 508 nafar** shaxslar tomonidan sodir etilgan **2 011 ta** korrupsiya va iqtisod sohasidagi jinoyatlar aniqlanib, ular oqibatida etkazilgan **197 mlrd 137 mln so'm** miqdoridagi zarar undirilishi ta'minlandi;

– **418 nafar** chegara qoidalarini buzgan hamda **204 nafar** odam savdosi jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi;

– respublika miqyosida **81 mln 919 mingdan ortiq** fuqarolar ishtirokida **162 643** marotaba o'tkazilgan ommaviy-madaniy tadbirlar davomida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligi to'liq ta'minlandi.

7.2. Kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari va jinoyatchilik holati:

2022 yilda respublikada **har 100** ming aholiga **298 ta** jinoyat to'g'ri kelib, Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida salmog'i yuqoriligi qayd etilgan.

Jami mahallalarning **31 foizida** (*2 928 ta*) jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan, o'z navbatida jinoyatlar qayd etilgan mahallalarning **3 391 tasida** (*42 %*) kriminogen vaziyat nisbatan murakkab hisoblanadi.

2022 yilda respublikada jami **66 405 ta** oldini olish lozim bo'lgan jinoyatlar sodir etilib, ularning soni **15 foizga** kamaygan. Bunda:

Jinoyatlarning asosiy salmog'i yoki **54 foizini** o'g'rilik (*15 237 ta*) va firibgarlik (*20 591 ta*) tashkil etgan.

O'g'riliklarning **10,1 foizi** xonadonlarda, **6,8 foizi** savdo shoxobchalarida, **8,4 foizi** avtotransport vositalaridan sodir etilgan, **17,6 foizini** telefon, **5,5 foizini** velosiped, **6,1 foizini** hayvon o'g'riliklari va **3,7 foizini** kissavurlik tashkil etadi.

Firibgarliklarning **8,5 foizi** o'qishga va ishga kiritish, **6,7 foizi** avtomashina, **5,9 foizi** uy-joy, **3,5 foizi** kredit, **3,9 foizi** chorva mol olib berish maqsadida hamda **6,6 foizi** qarz oldi-berdi masalasida sodir etilgan.

O'g'rilik jinoyatlarini asosan **16-30 yoshdagi** (*62 %*) muayyan kasbga ega bo'lmagan (*57 %*) shaxslar sodir etgan.

Firibgarlik jinoyatiga asosan **30-45 yoshdagi** (*70 %*) nodavlat sektorida ishlab turib (*73 %*) o'zining ish faoliyatiga taalluqli bo'lmagan sohada noqonuniy xatti-harakat sodir etgan (*47 %*) shaxslar qo'l urgan.

O'g'rilik va firibgarlikka qo'l urganlarning **16 foizini** ilgari sudlanganlar, shundan salmoqli qismini ilgari aynan o'g'rilik va firibgarlik sodir etib (*36 %*) ozodlikdan mahrum etilmagan (*91 %*) shaxslar tashkil etadi.

– mulkiy turdagi jinoyatlarning **18 foizi** (*6 153 ta*) axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan bo'lib, ularning asosiy salmog'ini (*4 555 ta, 74 foiz*) fuqarolarning bank plastik kartalaridagi pullarni qo'lga kiritish tashkil etgan;

– oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlarning **17 foizini** (11 639 ta) o'zaro nizolar va kelishmovchilik sababli sodir etilgan qotillik, tan jarohati etkazish va bezoriliklar tashkil etgan;

Mazkur jinoyatlarning **4 823** tasi oilalarda, **3 667** tasi jamoat joylarida, **2 885** tasi dala maydonida, **264** tasi ijtimoiy ob'ektlar hududida sodir etilgan

Oilaviy nizolar sababli sodir etilgan jinoyatlar asosan **yosh (35 %)** va **doimiy daromad manbai bo'lmagan (29 %)** oilalarda, o'zaro nizoli holatlar esa **ichkilikbozlikka berilganlar (26 %)** orasida yuzaga kelgan

– band bo'lmaslik yoki daromad topmaslik oqibatida **24 foiz (15 507 ta)** oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlar sodir etilib, asosan Toshkent shahri (6 571 ta), Toshkent (1 633 ta), Andijon (1 392 ta) va Surxondaryo (1 002 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

VIII. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish tadbirlari

2022 yil 11 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar asosida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida islohotlarning **yangi bosqichi** boshlandi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Administratsiyasi rahbarining (AF-9-son) farmoyishi** asosida **Respublika ishchi guruhi** tashkil etilib, sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kiritilgan loyihalar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **6 ta** qarori hamda Vazirlar Mahkamasining **7 ta** qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash, harakatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– Bosh vazir rahbarligida **Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash respublika maxsus komissiyasi**, hokimlar rahbarligida esa **hududiy maxsus komissiyalar** tuzilib, ularning **tarkibi** va **nizomi** tasdiqlandi;

– yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi tasdiqlandi;

– **ekspluatatsiya-montaj bo'limlari** barcha shtat birliklari, yondosh hududlar va moddiy-texnik bazasi bilan hokimliklar tasarrufidan hududiy Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalariga o'tkazildi;

– Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarida barcha svetoforlar va yo'l belgilarini **o'rnatish** hamda **yo'l chiziqlari chizish mas'uliyati** bevosita IIV Yo'l harakati xavfsizligi xizmati zimmasiga yuklatilib, uning huzurida "**Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda**" respublika jamg'armasi tashkil etildi;

– avtomaktablarga **litsenziya berish** Ichki ishlar vazirligi tomonidan

rasmiylashtirish, ularning o'qituvchilarini Vazirlik Akademiyasida **qayta tayyorlash** amaliyoti yo'lga qo'yildi;

– **“Yo'l harakati qoidalari”** yangi tahrirda qabul qilindi (*141 ta band yangilandi*);

– Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy boshqarmalarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda xizmat olib boradigan **katta inspektor** lavozimi joriy etildi hamda ta'lim muassasalarida ko'ngilli yoshlar ishtirokida yo'l harakati qoidalarini faol targ'ib qiluvchi **“Yo'l harakati qoidalari yosh targ'ibotchisi”** klublari tashkil etildi.

Shuningdek, aholi tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida bir qator masalalarga (*fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'layotgan*) ijobiy echim topildi. Xususan:

– 2022 yil 1 iyuldan boshlab avtomashinalarning **orqa yon oynalarini** qoraytirish (*tonirovka*) uchun ruxsatnoma olish tartibi bekor qilindi;

– **old yon oynalari** tusini o'zgartirish (*qoraytirishga*) uchun to'lov miqdori esa **olti baravarga** kamaytirildi.

Shu bilan birga, 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab:

– yangi avtomashinalarni majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish **10 yil o'tgandan so'ng** amalga oshirilmoqda;

– avtomashinani boshqarish huquqini beruvchi **ishonchnomani elektron** shaklda rasmiylashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

– yo'l-patrol xizmati statsionar maskanlarida **“Yashil”** va **“qizil”** yo'lak tizimi bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarida ishga tushirilmoqda;

Qayd etish lozim, 2022 yil davomida respublikada **9 906 ta** yo'l-transport hodisasi sodir etilib, ularning **21 foizi** (*2 088 ta*) inson o'limi bilan yakunlangan. Bunda:

– yo'l-transport hodisalarining **50 foizi** xalqaro va viloyatlararo yo'llarda, **33 foizi** mahalla ko'chalarida, **10 foizi** shaharlardagi chorraha va yo'l kesishmalarida, **9 foizi** ijtimoiy ob'ektlar yonida (*bozor, ta'lim muassasasi, istirohat bog'i*), **5 foizi** yo'llar atrofidagi ob'ektlarda (*AYoQSh, texnik stantsiya, bekat, temir yo'l kesishmasi, do'kon*) sodir etilgan;

– avtoavariyalarning **47 foizi** haydovchilar tomonidan piyodaga yo'l bermaslik hamda **32 foizi** belgilangan tezlikka, **23 foizi** yo'l belgilariga va **11 foizi** quvib o'tish qoidasiga amal qilmaslik oqibatida sodir bo'lgan.

Avtoavariya oqibatida **2 356** nafar (*2021 yilda – 2 426*) inson vafot etgan, **9 606** nafari (*9 230 nafar*) jarohatlangan

IX. Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi

PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo’naltirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan **quyidagi asosiy maqsadlarga** yo’naltirilgan **Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi** tasdiqlandi:

– ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o’z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish;

– ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas’uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume’tirof etilgan odob-axloq normalariga so’zsiz amal qilish tuyg’usini shakllantirish;

– ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo’lgan nojo’ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro’siga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik.

Unga asosan quyidagi **yangi tartiblar belgilandi**:

– ichki ishlar organlarida xizmatga birinchi marta qabul qilingan xodimlarga nisbatan tayinlanadigan dastlabki sinov muddati **bir yil** etib belgilandi;

– hududiy ichki ishlar organlari ehtiyojini inobatga olib, Ichki ishlar vazirligining akademik litseylari bitiruvchilari uchun Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriatning “Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” va “Tezkor-qidiruv faoliyati” ta’lim yo’nalishlariga **to’lov-kontrakt asosida o’qitishni nazarda tutgan holda, 200 nafargacha qo’shimcha har yillik qabul kvotasi** kiritildi;

– **2023 yil yakuniga qadar** ichki ishlar organlarida xizmatga qabul qilishning soddalashtirilgan tartibi o’rnatilib, **“E-nomzod” elektron axborot tizimini** yaratiladi;

– ichki ishlar organlariga **xizmatga birinchi marta qabul qilingan xodimlar** vazirlik Malaka oshirish institutida uch oylik boshlang’ich kasbiy tayyorgarlik kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganidan so’ng tegishli lavozimga tayinlanadi;

– **2023 yil 1 sentyabrdan** boshlab xodimlarni **“Fuqarolar bilan ishlash moduli”** bo’yicha uzluksiz o’qitish amaliyoti yo’lga qo’yiladi;

– Ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratish maqsadida Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo’linmalarida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi soha olimlari, faxriylari va jurnalistlardan iborat **jamoatchilik kengashlari** tuziladi.

2022 yilning 12 oyi davomida **47 369 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi hamda **xorijiy politsiya** tizimi ta'lim muassasalari va bo'linmalarida **199 nafar** amaliyotchi xodimlarning **malakasi oshirildi**;

– ichki ishlar organlari xizmatiga **3 844 nafar** nomzodlar yangidan va **143 nafar** sobiq xodimlar qayta qabul qilindi, ish samaradorligini oshirish maqsadida **169 nafar** rahbar xodimlar boshqa lavozimlarga rotatsiya qilindi, **8 068 nafar** xodimlar attestatsiyadan o'tkazildi;

– psixolog-mutaxassislar tomonidan shaxsiy tarkib bilan **1 487 marotaba** targ'ibot-tashviqot ishlari, **26 646 marotaba** yakka tartibdagi konsultativ suhbatlar o'tkazilib, **174 nafar** xodimlar psixiatr ko'rigiga yuborildi;

– yuqori natijalarga erishgan **64 nafar** xodimlar davlat mukofotlari bilan va **4 355 nafar** xodimlar Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan taqdirlandi;

– **133 ta holatda** pora berish jinoyatlari bo'yicha maxsus tadbirlar o'tkazilib, xizmat vazifasiga vijdonan yondashgan xodimlarga **490 mln so'm** pul mukofatlari berildi.